



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI
BUYRUG'I**

2021-y. "29" oktabr

400 /Ch-sonli

**Sportning basketbol turi bo'yicha
yoshlar o'rtasida 2021-2022-yillar
uchun O'zbekiston chempionatining
1-tur baxslarini o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2021-yil uchun respublika kalendar rejasiga muvofiq

BUYURAMAN:

1. Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining 2021-yil 19-oktabrdagi 344-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sportning basketbol turi bo'yicha yoshlar o'rtasida 2021-2022-yillar uchun O'zbekiston chempionatining 1-tur baxslari (bundan buyon matnda musobaqa deb yuritiladi) 2021-yil 8-13-noyabr kunlari Xorazm viloyati, Urganch shahrida o'tkazilsin.

3. Musobaqada ishtirok etuvchi xodimlar tarkibi 1-ilovaga, musobaqani o'tkazish sarf-xarajatlar smetasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Moliya-iqtisodiyot departamenti (B.Mirzaxmedov)ga:

a) musobaqani o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni vazirlikning sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2021-yil uchun respublika kalendar rejasida 2.1.4-basketbol bo'limida belgilangan mablag'lar hisobidan qoplanishini nazarda tutish;

b) musobaqaning sarf-xarajatlar smetasiga muvofiq mablag'larni Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazib berilishini ta'minlash;

5. Musobaqa bosh hakami va hakamlarning ovqatlanish xarajatlari ularning bank plastik kartochkalariga pul o'tkazish yo'li orqali amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

6. Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi (J.Akramov)ga:

a) musobaqa uchun ajratilgan mablag'larni maqsadli sarflash;

b) musobaqa yakunidan so'ng uch kun muddat ichida vazirlikning Moliya-iqtisodiyot departamentiga mablag'larning sarflanishi bo'yicha

moliyaviy hamda olimpiya sport turlarini rivojlantirish boshqarmasiga texnik hisobotlarni topshirish;

v) musobaqa davrida vazirlikning Matbuot xizmatiga musobaqaga oid fotolavhalar va to'liq ma'lumotlarni kunma-kun berib borish vazifalari yuklatilsin.

7. Xorazm viloyati turizm va sport bosh boshqarmasi:

a) musobaqani o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalariga asosan Xorazm viloyati hokimligidan tegishli ruxsatnoma olish;

b) musobaqani tashkil etishda Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabiga amaliy yordam ko'rsatish vazifalari yuklansin.


8. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalariga ushbu musobaqada o'zlarining terma jamoasi ishtirokini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari hamda vazirlik tizimidagi respublika tizim tashkilot hamda muassasalari rahbarlariga mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq tegishliligi bo'yicha xodimlarni musobaqada ishtirok etishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin

10. Devonxonaga mazkur buyruq nusxasini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari hamda Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabiga yuborish vazifasi yuklatilsin.

11. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Vazir o'rinbosari



A.Karimov

Turizm va sport vazirligining
2021-yil "19" oktabr 2021 - yil
100 iyul - sonli buyrug'iga
1-ilova

**Sportning basketbol turi bo'yicha yoshlar o'rtasida 2021-2022-yillar
uchun O'zbekiston chempionatining 1-tur baxslarini o'tkazishda
ishtirok etuvchi xodimlar tarkibi**

	F.I.SH.	Lavozimi	Viloyati	Ish joyi
1	Xashimov Dilshod Kasimdjanovich	Bosh hakam Bosh hakam o'rinbosari	Toshkent shahri	O'zbekiston basketbol federatsiyasi hodimi
2	Paxin Yuriy Dmitrievich	Bosh hakam o'rinbosari	Toshkent shahri	O'zbekiston basketbol federatsiyasi hodimi
3	Abduvalieva Zebo Odiljon qizi	Bosh kotib	Namangan viloyati	O'zbekiston Davlat jaxson tillari universiteti talabasi
4	Ergashev Alisher Akromjon o'g'li	hakam	Namangan viloyati	Namangan viloyati, Uychi tumani BO'SM treneri
5	Ganiev Ravshan Mumindjanovich	hakam	Toshkent shahri	O'zbekiston basketbol federatsiyasi Bosh kotibi
6	To'lqinov Muxammadyusuf Rasuljon o'g'li	hakam	Farg'ona viloyati	Farg'ona viloyati sportning o'yin turlari va engil atletikaga ixtisoslashtirilgan BO'SM treneri
7	Uraimjanov Zokir Iqboljon o'g'li	hakam	Namangan viloyati	O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabasi
8	Sharashenidze Omari Georgievich	hakam	Qoraqalpog'iston Respublikasi	O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabasi
9	Mamajonov Azamjon Azizovich	hakam	Farg'ona viloyati	Farg'ona viloyati sportning o'yin turlari va engil atletikaga ixtisoslashtirilgan BO'SM treneri
10	Osmanov Enver Serverovich	hakam	Namangan viloyati	Namangan viloyati sportning o'yin turlari va engil atletikaga ixtisoslashtirilgan BO'SM treneri
11	Djurayev Dilshod Ulug'bek o'g'li	hakam	Namangan viloyati	Namangan viloyati sportning o'yin turlari va engil atletikaga ixtisoslashtirilgan BO'SM treneri